




**UZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**



20-noyabr 2020-yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TEXNOLOGIK VA PROFESSIONAL
TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH,
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Respublika onlayn ilmiy-texnik anjuman
materiallari to'plami**

2020-yil 20-noyabr

Buxoro – 2020

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 – yil 7 – fevraldagi 56-Φ-sonli farmoyishi asosida 2020 – yil 20 – noyabr kuni Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan “Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plami, Buxoro - 2020.

“Texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammolar va yechimlar” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari to’plamiga ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan izlanuvchilar va tadqiqotchilar, professor-o’qituvchilar, magistrlar hamda talabalarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Ushbu ilmiy-texnik anjumanning asosiy maqsadi texnologik va professional ta’limni modernizatsiyalash, sohada mavjud muammolar va ularning yechimlari bo’yicha fikr almashish, ta’limning uzviyligini va uzluksizligi ta’minlash, texnologik va professional ta’limda zamonaviy o’quv adabiyotlari va dasturiy ta’lim vositalarini yaratish, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, texnologik va professional ta’limda muqobil energiya manbalariga oid bilim berish, ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini jadallashtirish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Texnologiya” fanini o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash borasida erishilgan yutuqlarni yoritish va muammolar yechimini topish, shuningdek, ta’lim tizimidagi hamkorlik borasida fikr almashish, mushohada yuritish, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan professor-o’qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

Tashkiliy qo’mita:

- | | | |
|-----|-------------------|------------------------------------------------------------------|
| 1. | O.X. Xamidov | Universitet rektori, rais; |
| 2. | O.S. Qahhorov | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | M.I. Daminov | O’quv ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 4. | O’U. Rashidov | Moliya va iqtisod ishlari bo’yicha prorektor, a’zo; |
| 5. | S.Q. Qahhorov | Fizika kafedrası professori, a’zo; |
| 6. | H.O. Jo’rayev | Fizika-matematika fakulteti dekani, a’zo; |
| 7. | E.M. Muxtorov | Pedagogika fakulteti dekani, a’zo; |
| 8. | G.T. Zaripov | I va IPKTB bo’limi boshlig’i, a’zo; |
| 9. | A.R. Jo’rayev | Texnologik ta’lim kafedrası mudiri, a’zo; |
| 10. | Sh.H. Quliyeva | Texnologik ta’lim kafedrası dostenti, a’zo; |
| 11. | D.A. Sayfullayeva | Texnologik ta’lim kafedrası dostenti, a’zo; |
| 12. | Y.Y. Jamilov | Texnologik ta’lim kafedrası o’qituvchisi, kotib; |

Ma’ul muharrir:

- | | |
|---------------------|------------------------------------------------------|
| A.R. Jo’raev | “Texnologik ta’lim” kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD) |
| Y.Y. Jamilov | “Texnologik ta’lim” kafedrası o’qituvchisi |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|----------------------------------------|
| B. R. Adizov | pedagogika fanlari doktori, professor. |
| Sh.Sh. Olimov | pedagogika fanlari doktori, professor. |

Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning ilmiy saviyasi, mazmuni va ularning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Buxoro davlat universiteti, 2020-y.

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA DASTURLASHTIRILGAN TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH

A.R. Jo'rayev

BuxDU Texnologik ta'lim kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish asosida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5099-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarorlari uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirishda, ta'lim oluvchilarga sifatli ta'lim xizmatlar va imkoniyatlarni oshirish, malakali kadrlar tayyorlashda, ta'lim sifatini tubdan oshirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bilan birgalikda elektron ta'lim muhitini yaratish, dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish va jahon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash kasb ta'limi o'qituvchilari zimmasiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Ana shu vazifalar qatorida o'quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish alohida ahamiyatga molikdir. Taraqqiyotning hozirgi bosqichi bir qator xususiyatlari bilan farq qilibgina qolmasdan, unga mos bo'lgan talablarni ro'yobga chiqarishni ham taqazo qilmoqda.

Bo'lajak kasb ta'limi va texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda fan va ishlab chiqarish integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish xotirada saqlab bo'lmaydigan katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi.

Natijada bugungi kunda tahsil olayotgan bilimga chanqoq, zukko ta'lim oluvchini bundan 10-15 yil ilgari ta'lim oluvchilarga tenglashtirish mumkin emas. Gap shundaki, yaqin 10 yil ilgari ta'lim oluvchi zarur malumotlarni asosan o'qituvchi va mavjud adabiyotlardan olgan bo'lsa, bugun esa vaziyat keskin o'zgardi. Zamonaviy va samarador texnologiyalarning hayotga keng joriy etilayotganligi, ayniqsa bu jarayonlarning axborot almashinuv tizimiga ham keng qamrovda kirib kelayotganligi vaziyatni tubdan yangilamoqda. Oqibatda hozirgi avlodning ma'naviy ehtiyojlari ham tez o'sib borayapti. Ularni aqliy qobiliyatlarini

rivojlantirish va o'qish mativlarini shakllantirishda o'qituvchidan pedagogik bilimdonlik, pedagogik tajriba, ijodiy izlanuvchanlik hamda o'z ustida tinimsiz ishlashi bilan birga zarur axborot vositasi va ta'lim usullaridan oqilona va o'rnida foydalanishi darsning samarali tashkil etilishini taminlaydi. Shundagina o'quv jarayonining sifat va samaradorligi oshadi. Bundan kelib chiqqan holda isloh etilayotgan ta'lim tizimi oldiga talabalarimiz talablariga javob bera oladigan o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish zaruratini qo'ymoqda.

Hozida masofaviy ta'limda quyidagi zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalar qo'llanilmoqda: elektron pochta, telekonferensiyalar tizimi, Web-serverlar, mediaserverlar, kompyuterli videokonverensaloqa tizimlari va boshqalar. AQSH, Shetsiya, Finlandiya va Rossiya universitetlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning natijasiga asosan, tinglovchi o'quv ma'lumotlarini yetkazishning zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi nisbiy bo'linish tavsiya qilinadi: chop etilgan o'quv materiallari – 40-50 %; web-serverlarida joylashgan o'quv materiallari – 30-35 %; kompyuterli videokonferens aloqa – 10-15 %; o'quv materiallarini jo'natishning boshqa shakllari – 5-20 % ni tashkil etadi. Masofaviy ta'lim mamlakatimiz aholisining keng qatlamlariga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining majmuasi sifatida aniqlanib, u o'quv axborotlarini masofada almashinuvini ta'minlaydigan eng maqbul zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangandir. O'qitishning an'anaviy sirtqi shaklidan farq qilgan holda masofadan turib ta'lim berish axborot bazasini anchagina boyitish, tinglovchi bilan o'quv yurti o'rtasidagi o'zaro munosabatni jadallashtirish, ta'limning uslubiy ta'minlanishini boyitish imkoniyatini beradi.

Masofaviy ta'limni tashkil etish bo'yicha quyidagi ishlarni to'rt yo'nalish bo'yicha olib borish maqsadga muvofiqdir;

Birinchidan masofaviy ta'limda ishtirok etuvchilar bilan olib boriladigan tashkiliy va o'quv uslubiy ishlar;

Ikkinchidan masofaviy ta'limda qo'llaniladigan axborot va telekommunikatsion texnologiyalar bilan tanishish, o'rganish va kerakli texnikaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan kompyuter va dasturiy majmuani yaratish;

Uchinchidan masofaviy ta'lim uchun o'quv uslubiy materiallarni yaratish bo'yicha ishlar;

Tortinchidan masofaviy ta'limda qo'llaniladigan o'quv materiallarini yaratish texnologiyasini o'rganiash va uni joriy qilish bo'yicha ishlar.

Masofaviy ta'limning eng asosiy elementlaridan biri elektron darsliklar yaratish imkoniyatlari har bir o'qiyuvchi faoliyatining ajralmas qismi sifatida o'rin egallasa darslarning noan'anaviy tashkil etilishini ta'minlaydi. Shu asosda multimedia muhitida o'quv kurslarini yaratish uzoq davon etadigan va moliyaviy jihatdan yuqori turadigan jarayonni tanlash, rejalashtirish va amalga oshirish masalalariga katta ahamiyat berish kerak. Shuning uchun kompyuterdagi o'quv kursini yaratishning barcha bosqichlarini va ishlab chiqishning har bir bosqichidagi qabul qilinishi mumkin bo'lgan yechimlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi bosqichlar zarur bo'ladi.

Dastlabki bosqich multimedia muhitida ko'rsatilishi kerak bo'lgan o'quv fani tanlanadi. Bunda ushbu fan bo'yicha oldindan tayyorlangan kurslarni ajratish, kurslarni yaratish uchun mo'ljallangan mablag' va vaqtni, shuningdek kurs o'qiladigan auditoriya va uning mo'ljallangan tirajini aniqlash zarur bo'ladi.

Tayyorlash bosqichida kurs matni yozish, ko'rgazmali va bildirgi materiallarni tayyorlash, eskizlar interfeysi va o'quv dasturining ssenarisi, shuningdek alohida bloklarning ssenriylarini ya'ni animatsion fragmentlar, videofragmentlar, kompyuterli modellashtirishni amalga oshiruvchi dasturlar, bilimlarni tekshirish bloklari va boshqalar mo'ljallanadi.

Asosiy bosqichda kursni bevosita yaratish bo'yicha ishlar bajariladi.

Yakunlovchi bosqichda kurs mavzularga bo'linadi, gipermatnlarga jo'natish tizimi shakllantiriladi. O'quv multimedia kurslari uchun xarakterli bo'lgan katta bosqichdagi axborotlarni faqat yaxshi ishlab chiqilgan interfeys va navigatsiya tizimlari orqali qamrab olish mumkindir.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, o'qitishning yangi shakllari va usullaridan samarali foydalanish, o'qitilayotgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning texnik ta'minlanganlik darajasini oshirish, yuqori malakali jahon ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun talabalarning bilimegallashdagi faolligini oshirish masalalari ustida jiddiy izlanishlar olib boorish maqsadga molikdir.

O'quv jarayonida texnika, o'qitish vositalarining qo'llanilishi, ayniqsa uning dars jarayonini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida ishlatilishi o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Bu omillar o'qituvchi va talaba faoliyatini takomillashtiradi, o'quv jarayonini jadallashtiradi, talabaga yetkazilishi kerak bo'lgan voqea va hodisalarning chuqurroq o'rganilishida, ta'limdan ko'zlangan maqsadga tezroq yetishishda, shuningdek talabalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omildir.

Bo'lajak kasb ta'limi va texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarni qo'llash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita bo'lishi bilan birga, talabalarda ushbu texnika imkoniyatlari to'g'risidagi tushunchalarning tegishli masalalarni echish jarayonida hosil qilinishi bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – T.: SHarq, 2002 y. – 176 b.
2. Olimov Q.T. “O'quv adabiyotlarini yaratish nazariyasi va metodikasi”. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. – T.: 2010 y. – 158 b.
3. Mirzahmedov B.M.Zamonaviy darslikka qo'yiladigan didaktik talablar. “O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – B.: 2006 y. – 148 b.

МУНДАРИЖА

Кириш		4
О.Х.Хамидов	Технологик ва профессионал таълимни модернизациялаш етук мутахассислар тайёрлаш омили	5
О.С.Қахҳоров	Таълим тизимини модернизациялаш ва кадрлар тайёрлаш механизмини такомиллаштириш зарурати	7
О.А.Қўйсинов	Узлуксиз таълим тизимида узвийликни таъминлаш тараққиёт меъзони	9
К.Ж.Ризқулова, Ф.Ҳ.Ғаффаров	Педагогика коллежларида ўқув жараёнини ташкил этиш	12
1-ШҮЪБА. ТЕХНОЛОГИК ВА ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ ЎҚУВ АДАБИЁТЛАРИ ВА ДАСТУРИЙ ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИНИ ЯРАТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ		
С.Қ.Қахҳоров	Таълим жараёнида замонавий ўқув адабиётлари ва дастурий таълим воситаларидан фойдаланиш	14
A.R.Jo'rayev	Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturlashtirilgan ta'lim vositalardan foydalanish	16
A.R.Jo'rayev S.I.Baxtiyoro'va	Oliy ta'lim muassasalarida SMART texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish	19
Э.И.Рузиев	Технология ўқитувчилари тайёрлашда графика фанларини ўқитишнинг ўзига хослиги	22
Э.Р.Ахмедов	Баклаврларни касбий фаолиятга тайёрлаш самарадорлигини оширишга имкон берувчи электрон таълим ресурсларини яратиш	24
Ш.Салохитдинов	Умумкасбий фанларини ўқитишнинг замонавий дидактик воситалари асосида ўрганишга концептуал ёндашув	26
О.А.Хамидов	Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда мультимедиа технологиялари ва мультимедиали ўқув воситаларининг ўрни ва роли	28
М.А.Халмухамедова	Технологик таълим йўналиши талабаларини тайёрлашда ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланиш	30
С.Х.Қосимов	Ноананавий усулда “транспорт логистикаси” фанини ўқитишда интерфаол усуллардан фойдаланиш	34

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 30 нусха. Ҳажми 293 бет. Формат А5. Буюртма 178. 2020.

Бухоро шаҳри, М.Иқбол кўчаси, 11. Тел.: 65-221-26-45.